



AVTOMOBIL YO'LLARIDA TA'MIRLASH VA QAYTA QURISH HUDUDLARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Sayfutdunova R.A.

Xomidov R.

Muydinov B.

talabalar (TDTU)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13789982>

Tayanch so'z va iboralar: Ta'mirlash, jixozlash, yo'l belgilari, harakat xavfsizligi, texnik vositalar, yo'l bo'laklari.


Transport vositalarining harakat jadalligini kundan-kunga yuqori darajada, jadal suratlarda o'sib borishiga muvofiq ravishda avtomobil yo'llarini qurish, qayta qurish va ularni ekspluatatsiya qilishni ta'minlash bugun hukumat darajasidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy avtomobil yo'llari murakkab muxandislik inshooti bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib avtomobil yo'llarida transport vositalarini xavfsiz va yuqori tezliklar bilan harakatlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun sohani innovatsion texnologiyalar va yuqori ish unumdorligiga ega zamonaviy texnika, mashina-mexanizmlar, intellektual salohiyatli mutaxassislar bilan ta'minlash orqali erishish mumkin.

Асосий қисм: Ta'mirlanayotgan yoki qayta quriliyotgan yo'l bo'laklarida harakat xavfsizligini ta'minlash juda muhim vazifalardan biri bo'lib, agarda texnik boshqaruv vositalari me'yoriy talablar darajasida o'z vaqtida o'rnatilmasa bir qator muommolarni keltirib chiqaradi. Masalan, transport vositalarini ushlanib qolishlarni, tirbandliklarni keltirib chiqaradi va yo'l-transport hodisalarini (YTH) sonini ortishlari kuzatiladi.

Shuning uchun ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilishga ajratilgan uchastkalarda avvalombor mazkur yo'l uchastkalarida transport oqimi yo'nalishini o'zgartirish bo'yicha "Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi" bilan kelishilgan holda havfsizlikni ta'minlash bo'yicha "Transport oqimini harakatini tashkil etish sxemasi" ishlab chiqiladi.

Ta'mirlanayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan yo'l bo'laklari harakat tezliklariga bog'liq holda "Transport oqimini harakatini tashkil etish sxemasi" me'yoriy talablarga asosan ma'lum masafada oldindan yo'l harakati ishtirokchilarga yo'lning holati bo'yicha ma'lumotlar berish uchun panolarda aks ettirilisa maqsad muvofiqdir.

Aholi yashash punktlarida yo'llarni ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joylarda transport vositalari va piyodalarning harakatini tashkil etish, yo'l





ishchilari va yo'ldagi harakat ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash tartibini belgilash lozim. Yo'ldagi ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan joylarda harakat xavfsizligini tashkil etishda yo'lning toifasi, ahamiyatidan qat'iy nazar barcha yo'llar va ko'chalarda amalga oshirilishi kerak. Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarda keltirilgan talablarga amal qilish kerak.

Kunning qorong'ida vaqtida me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga muvofiq yoritilishi kerak. Qurilish maydonchalarini yoritish standartlari va ishlatilgan to'siq va qurilmalar doimiy qizil signalli chiroqlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Yo'l harakatini tashkil etish va yo'lda ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joylarini to'siqlar bilan to'sish ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad transport vositalari va piyodalar oqimining xavfsizligini, shuningdek, ushbu hududda ta'mirlash ishlarini amalga oshiruvchi yo'l ishchilarining xavfsizligini ta'minlashdir. Ushbu maqsadga erishishning asosiy vazifalari:

- ish joylarida transport vositalari va piyodalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish;

- ta'mirlash ishlari olib borilayotgan yo'l uchastkalarining ish sur'atini, transport vositalarini va piyodalar oqimini harakatlanishini ta'minlash uchun;


- ta'mirlash ishlari olib boriladigan hududda quruvchi va yo'l xizmati xodimlarining xavfsizligini ta'minlash.

Belgilangan vazifalar transport vositalarining harakatini boshqarishning vaqtinchalik texnik boshqaruv vositalari va yo'l to'siqlari yordamida hal qilinadi va ularning turi ishning turi va yo'l sharoitlariga muvofiq tanlanadi.

Ta'mirlash ishlari olib borilayotgan yo'l uchastkasi deganda - yo'lda olib borilayotgan ishlar to'g'risida ogohlantiruvchi birinchi yo'l belgisidan avtomobil harakati rejimlarida uchastkaga qo'yilgan cheklovlarni bekor qiladigan oxirgi belgisigacha bo'lgan yo'l qismi tushuniladi.

Ta'mirlash hududini shartli ravishda beshta funksional zonaga bo'lish mumkin, ularning har biri tashkilot uchun muayyan vazifalarni hal qiladi va harakat xavfsizligini ta'minlaydi (1-rasm).





1-расм. Йўл таъмирлаш ишларини ҳудудини ажратиш схемаси.

Ushbu ҳудудларга quyidagilar kiradi:


- ogohlantirish hududi;
- transport oqimini qayta tizilish hududi;
- bufer hudud;
- Ta'mirlash ishlari olib borilayotgan hudud;
- Transport oqimini barqarorlashtirish hududi.

Ogohlantirish hududi yo'l harakati ishtirokchilarini yo'l ishlari maydonchasi mavjudligi, olib borilayotgan ta'mirlash ishlar bilan bog'liq xavf-xatarlar va yo'l ishlari maydonida transport vositalarining xavfsiz harakatlanish rejimini o'rnatish to'g'risida ogohlantirish uchun mo'ljallangan.

Agar yo'lning yuklanganlik koeffitsienti $Z > 0,6$ bo'lsa, ogohlantirish hududining boshida 3.27 belgisini o'rnatish kerak. Ushbu hududda, bajarilgan ishlarning xususiyatiga qarab, bitta yo'l belgisidan yoki rangli mayoqchali ogohlantirish vositalari orqali boshqarish mumkin.

Transport vositalari ta'mirlash ishlari bo'layotgan hudud yo'l belgi chiziqlari yoki yo'l to'siqlaridan foydalanib, belgilangan yo'llardan harakatlanishi lozim.

Bu hududda harakat traektoriyasi haydovchilar uchun aniq bo'lishi kerak, shuning uchun ish davomiyligi uch kungacha bo'lganida, transport oqimini boshqarish uchun yo'l to'siqlar, konuslar, plastik bordyurlar, vaqtinchalik belgilar kabi texnik boshqaruv vositalardan foydalanish mumkin. Ta'mirlash hududlarida harakat oqimini boshqarishda qo'llaniladigan konuslar, to'siqlar,





yo'l belgi chiziqlari yoki yorug'lik ishoralari bilan jixozlangan yo'l belgilari kompleks o'rnatilishi mumkin.

Agar ishning davomiyligi uch kundan ortiq bo'lsa, transport oqimini boshqarish uchun parapet tipidagi beton to'siqlardan foydalanish kerak. Ta'mirlash hududining uzunligi (L) haydovchilar ushbu hududda bajaradigan manevr xususiyatiga bog'liq (1-jadval).

1-жадвал

Harakatni o'zgartirish turlari	Qayta tizilish hududini uzunligi
Avtomobillarni yonidagi keyingi qatorga o'tishi	Kam emas L*
Avtomobillar oqimiga qo'shilmasdan keyingi qatorga o'tish	Kam emas 1/2 L
Turli yo'nalishdagi avtomobillarning o'zgaruvchan harakati bilan hudud oldida qayta tuzilish	20-30 m
Yonidagi qatordagi oqimini barqarorlashtirish z'hududidan o'z qatoriga o'tish	20-30 m
* 1 - avtomobillar oqimini qo'shni bo'lakka qayta tizilish sharti uchun harakatlanish zonasining minimal uzunligi	

Yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari yo'l harakati ishtirokchilarini turli xil xavflar to'g'risida ogohlantirib, ularga to'g'ri yo'nalish va harakat rejimini tanlashda yordam beradi. Ta'mirlash ishlari olib borilayotgan maydonlarga avtomobillarni kirib ketishini oldini olib, qurilish maydoniga begonalarni kirishi chegaralaydi. Transport vositalarini yo'lning qisqargan bo'laklaridan harakatlanish navbatini belgilab, qulayliklar yaratadi.

Texnik vositalar ichida eng muhimi ma'lumotlar beruvchi yo'l belgilaridir. Yo'l belgilaridan eng asosiylari quyidagilar:

Harakat ishtirokchilarini yo'lning xavfli joylarini yaqinlashayotganligi to'g'risida ogohlantiruvchi (1.23. "Ta'mirlash ishlari") belgisi;

-haydovchilarga harakat yo'nalishini o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar beruvchi (3.1. "Kirish taqiqlangan", 5.31 "Aylanib o'tish tasviri", 5.32.1., 5.32.2. "Chetlab o'tish yo'nalishi") va harakatlanish uchun yopiq hududni aylanib o'tish tartibga soluvchi (5.34.1, 5.34.2. "Boshqa qatnov qismiga qayta tizilishning boshlang'ich ko'rsatkichi") belgilari;

-haydovchilarga yo'lning torayish qismlari to'g'risida (1.18.1, 1.18.2, 1.18.3 "Yo'lning torayishi", 3.14. "Cheklangan kenglik", yo'lni tor qismlarida 2.6.





“Ro‘para harakatlanishining ustunligi”, 2.7. “Ro‘paradagi harakatlanishga nisbatan imtiyoz”) belgilari;


-harakat tezligini cheklash (3.24. “Yuqori tezlik cheklangan”, yoki 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlanadi”), belgilari;

-qurilish ishlari olib borilayotgan joyga yaqinlashayotganda avtomobillarni to‘xtashi va to‘xtab turishini taqiqlovchi (3.27. “To‘xtash taqiqlangan” yoki 3.28. “To‘xtab turish taqiqlangan”) belgilari;

-yo‘lning qisqargan joyidan o‘tgandan keyin barcha cheklovlarni bekor qilinganligini bildiruvchi (3.31. “Barcha cheklovlarning oxiri”) belgisi.


Yo‘l belgilarini bitta asosda 3tadan ko‘p o‘rnatmaslik va ustunlar orasidagi masofa avtomobil yo‘llarida 50 mdan, aholi yashash joylarida 25 m dan kam bo‘lmaslik kerak.

Ushbu belgilarni o‘rnatishda yo‘ldagi harakat tezligiga bog‘liq holda hisob-kitoblar asosida o‘rnatiladi (2-rasm).



2-rasm. To‘rt tasmali avtomobil yo‘lining ikkita tasmaida ta‘mirlash ishlari olib borilganda harakat tashkil etish va yo‘l to‘siqlarini o‘rnatish sxemasi

Real sharoitdagi ta‘mirlanayotgan yo‘l bo‘laklarida yo‘l to‘siqlarini va harakat xavfsizligini ta‘minlanish holatlari o‘rganilganda, me‘yoriy hujjatlarga mos holatda jixozlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin (3-rasm).





3-rasm. Ta'mirlanayotgan yo'l bo'lagidagi yo'l belgi va to'siqlarni o'rnatilgan holati.

Yuqoridagi rasmlarda ta'mirlanayotgan yo'l uchastkalarida yo'lni texnik boshqaruv vositalari bilan jixozlanishdan ko'rinib turibdiki, bu jixozlarni o'rnatilishi me'yoriy talablarga javob bermasligi ko'rib turibmiz.

Хулоса: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda ta'mirlash va qayta qurish ishlarini olib borilayotgan hududlar o'rganilganda avtomobil yo'llarida, shahar ko'cha-yo'l bo'laklarida ham qurish ishlari olib borilayotgan mintaqalarda harakat xavfsizligi ta'minlash me'yoriy talablarga javob bermasligi ko'rishimiz mumkin. Ta'mirlash hududlarida transport vositalarining tartibsiz harakati qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan: Birinchi navbatda ekologiyani ifloslantirish: chiqindi gazlar, shovqin, chang-tuzon ko'tarilishi, tirbandlik, ushlanib qolishlar, yo'l harakati ishtirokchilarining psixofiziologik holatini buzilishi va h.z

Bundan tashqari tamirlash va rekonstruksiya ishlari yakunlangandan keyin vaqtinchalik yo'l belgilarni o'z vaqti olib tashlash kerak, aks holda bu belgilar harakat ishtirokchilarini chalg'itishi va xavfsizligiga katta xavf tug'dirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov Q.X. Harakt xavfsizligini tashkil etish asoslari.-T. "Fan va texnologiya", 2009-244 b.
2. V.V. Silyanov "Organizatsiya dvijeniya i ograđenje mest proizvodstva dorojnyx rabot naselennyx punktaxanizatsiya" - g. Moskva, 2009 . 60 st.
3. Azizov Q.X. Shahar yo'llarida harakt xavfsizligini tashkil etish.-T. "Fan va texnologiya", 2021-221 b.

